

OLIY O'QUV YURLARIDA MASOFAVIY (ONLINE) TA'LIM:
MUAMMOLAR, QIYINCHILIKLAR VA IMKONIYATLAR

Ra'no Rozikova
Feruza Ahmedova
Ingliz tili fani o'qituvchilari
Toshkent Xalqaro Vestminster Universiteti

Annotatsiya: Bugungi kunda butun dunyo xalqlari uchun, millatidan, so'zlashuv tilidan qat'iy nazar, eng tushunarli so'z bu "online" atamasi bo'lib qoldi desak mubolag'a bo'lmasa kerak. Sababi dunyo hamjamiyatiga birdek ta'sir ko'rsatgan pandemiya jahon ta'lim tizimini online (masofaviy) usulda olib borishga majbur qildi. Quyida ushbu yangi ta'lim shaklining O'zbekiston tajribasida kuzatilgan qulayliklari va kamchiliklari haqida fikr bildiriladi.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, pandemiya, talabalar faolligi, imkoniyat, yangi tajriba

Deyarli dunyoning har bir nuqtasida koronavirus pandemiyasi sababli insoniyat turli jabhalarda keskin o'zgarishlar guvohi bo'ldi. Vaziyat taqozosi bilan ko'p sohalar yangi transformatsiyalarga yuz tutdi; ular yangi sharoitga moslashishtirilgan tartib-qoidalarni, ish usuli va faoliyat tarzini tanlashga majbur bo'ldi. Xususan, ta'lim sohasi tizimi ham uzlucksiz ta'limni saqlash maqsadida tezkor qarorlar asosida o'qitishning masofaviy shaklini yo'lga qo'ydi va bu ekspertlar tomonidan ta'lim sohasidagi eng katta keskin burilish sifatida baholanmoqda.

Shubhasiz, O'zbekiston ham jahon bilan hamnafas masofaviy ta'lim formatini oliy ta'limga joriy etdi. Yurtimizdagi barcha mahalliy va xalqaro oliy o'quv yurtlari o'zлari uchun qulay bo'lgan masofaviy ta'lim platformasini tanlab, ushbu platforma asosida ta'lim berishni yo'lga qo'ydi. Bu burilishni O'zbekiston tajribasida ilk bor kuzatar ekanmiz, masofaviy ta'limning ko'zga yaqqol tashlanadigan qulayliklari va ba'zi qiyinchiliklarini keltirib o'tishni joiz deb topdik.

Garchi ta'limning bu usulu O'zbekiston oliv o'quv yurtlari tizimida ilk va kutilmagan tajriba bo'lsa-da, kuzatuvlar uning muhim qulayliklarini quyidagicha baholaydi:

1. Talabalar istalgan manzildan turib ta'lim olish imkoniga ega. Bunda talabalar o'zlariga qulay bo'lgan masofadan turib mashg'ulotlarda ishtirok eta oladilar va o'z navbatida ushbu xolat yuqori davomatni ta'minlaydi.
2. O'quv materiallari platformada bir manbada saqlanganligi talabalarga mavzularni mustahkamlash qulayligini yaratadi. Barcha platformalarda online mashg'ulot materiallari, audio va video materiallar mashg'ulotlar mavzusi doirasida guruhlashtirilib joylashtiriladi. Bu esa talabalarga istalgan vaqt ularni mustahkamlash maqsadida manbaga murojaat qila olish imkonini yaratadi.
3. Talaba va o'qituvchilarda ko'plab nufuzli seminar va treninglar, hususan, xalqaro vebinarlarda ishtirok etish imkoniyati yanada oshadi. Ayniqsa, kechki soatlarda ham olib boriladigan masofaviy tarzdagi tadbirlarda talaba qizlar va ayollar qatnashish ehtimoli ko'proq bo'ladi.
4. Vaqt va ta'lim xarajatlari uchun mablag' tejaladi. Ta'lim maskaniga qatnash zarurati yo'qligi sababli uning uchun ketadigan vaqt va mablag' bir necha barobarga qisqaradi.
5. Talabalar o'qish bilan birga ma'lum bir ish faoliyati bilan ham shug'ullanishlari mumkin. Ma'lumki, talabalar o'rtasida katta yoshli, oilali yoki ma'lum faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi yoshlar soni kam emas. Masofaviy ta'lim kunning ular uchun qulay vaqtida bilim olishi uchun shart-sharoit yaratadi.
6. Ta'lim usuli online bajariladigan foydali interaktiv mashqlarni darslarga tadbiq etish imkonini beradi. Masalan, talabalar dars jarayonida matching (munosib javobga moslashtirish), drag and drop (to'g'ri katakka joylash) kabi mashqlarni bajarish orqali o'rgangan bilimlarini tezlik bilan tekshirib olishlari mumkin. Ma'lumki, bu turdagagi interactive topshiriqlar internet

manbalarida juda ko'p va ulardan foydalanish yuzma-yuz ta'lim shaklida samarali emas.

7. Talabalar ham o'qituvchilar ham raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonidagi qiyinchiliklarni yengish barobarida yangi texnik bilimlarini orttirishadi.

O'z navbatida, ommaviy tarzda masofaviy ta'lim tajribasini oliy ta'limga joriy qilish bir necha muammo va qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu jumladan, O'zbekiston oliy ta'lim maskanlarida ham ta'lim berish asosan yuzma-yuz o'qitishga asoslanganligi va masofaviy ta'lim platformalari qisman tanishtirilgan bo'lsada ulardan foydalanish ko'rsatkichi amalda deyarli past ekanligi sababli ushbu ta'lim turi muammolarni chetlab o'tmadi. Ta'lim berish va olish jarayonida quyidagi muammoli xolatlar masofaviy ta'lim tajribasi doirasida kuzatildi.

1. Yuzma-yuz muloqot yetishmovchiligi ba'zi talabalarning mavzuni o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunda mashg'ulotlar davomida talabalarda istalgan vaqt o'qituvchi yoki guruhdoshlardan savol so'rash yoki yordam olish imkoni cheklanishi mumkin.
2. Talabalarning dars jarayonida mavzudan chalg'ish ehtimoli yuqori bo'ladi. Bunga ta'lim oluvchining uydagi sharoiti, o'qituvchi nazoratining yetishmasligi, dars bilan bir vaqtida turli ijtimoiy tarmoqlarga ulanib olishi kabi omillar sabab bo'lishi mumkin.
3. Elektr tarmog'idagi nosozliklar, internet provayderining sekin ishlashi ta'limni uzlucksiz va ravon olib borilishiga to'sqinlik qiladi. Barcha hududlarda ham internet ta'minoti imkoni yo'qligi talabalarning vaqtida online o'quv mashg'ulotlariga konferens tarzda ulanish va aynan jonli mashg'ulotlar davomida faol ishlay olish imkonini cheklaydi.
4. Ko'plab talabalarning kompyuter uskunalariga ega bo'lmasligi moddiy qiyinchilikni keltirib chiqaradi. Yoki aynan bir vaqtning o'zida oilaning bir necha talaba vakillariga jonli muloqotga asoslangan mashg'ulotlarda qatnanishi uchun yetarli uskunalar yetishmaydi.

5. Ba’zi talabalar dars jarayonida video orqali muloqot qilishdan bosh tortishadi. Bunga sabab ular o’z yashash sharoitlarini oshkor qilishni istamasligi yoki ularning aynan o’quv mashg’uloti vaqtida faqat texnik ulanganligi va mashg’ulotni kuzatib bormayotganligidir.

Qayd etilgan kamchiliklarga yoki ta’limni tashkil etishdagi qiyinchiliklarga qaramasdan masofaviy ta’lim usuli innovatsion ta’lim turi sifatida o’z ahamiyatiga va o’rniga ega. Tajribalar shuni ko’rsatadiki, pandemiya sharoiti bo’lmagan vaziyatda ham masofaviy ta’lim elementlarini ta’limda saqlab qolish o’rinli. Masalan, nazariy mashg’ulotlar yoki ma’ruzalar media vositalari bilan masofaviy ta’lim platformalarida joylanib borilganda talabalarda istalgan vaqtda ularga qayta murojaat qila olish imkonи bo’ladi. Boshqa tarafdan olib qaraganda, yuzma-yuz mashg’ulotlarning o’rni beqiyos va uning samarasi sanoqsiz ilmiy manbalarda isbotlangan. Xulosa o’rnida aytish mumkinki, vaziyat qaysi ta’lim shaklini taqozo etishiga qaramay, ta’lim olishga bo’lgan kuchli qiziqish va xohish har qanday murakkab vaziyatdan samarali chiqishga omil bo’la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI

Dumford, A.D. and Miller, A.L. (2018). Online learning in higher education: exploring advantages and disadvantages for engagement. *Journal of Computing in Higher Education*, 30 (3), 452–465.
<https://doi.org/10.1007/s12528-018-9179-z>.

Shin, M. and Lee, Y.-J. (2009). Changing the Landscape of Teacher Education via Online Teaching and Learning. *Techniques: Connecting Education and Careers (J1)*, 84 (1), 32–33.
<https://eric.ed.gov/?id=EJ829510>

Young, S. (2006). Student Views of Effective Online Teaching in Higher Education. *American Journal of Distance Education*, 20 (2), 65–77.
https://doi.org/10.1207/s15389286ajde2002_2.